

AXBOROT XAVSIZLIGINI TA'MINLASHNING G'OYAVIY-NAZARIY ASOSLARI.

*Andijon davlat pedagogika instituti Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi o'qituvchisi **Tolipov Xushnadbek Zafarovich***

*Andijon davlat pedagogika instituti
Musiqiy ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
Qurbonova Rahimaxon Shermamaxammad Qizi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot xavfsizligi g'oyaviy asosiy tamoyillari xaqida tushuncha beriladi. Axborot xavfsizligini ta'minlash, parol tushunchasi, ro'yxatdan o'tish tartibi, kompyuter viruslari va viruslarga qarshi kurashish usullari xaqida ma'lumotlar berilib, zamonaviy texnologiyalar asri xaqida so'z boradi.

Kalitso'zlar: Axborot xavfsizligi, axborot tahdidlari, login, parol, internet, virus, kompyuter, fishing, tizimlar, insoniylik, jamiyat, internet.

KIRISH

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasi qanchalik rivoj topgani sari, uning afzalligi va qulayliklaridan foydalanish bilan bir qatorda, butun mamlakatimizda axborot xavfsizligini ta'minlash eng dolzarb masalaga aylanib bormoqda, Ushbu soha albatta rivojlanishi kerak va buni qilamiz...

SH.M.Mirziyoyev.

Axborotdan foydalanishda, qonuniylik va huquq tartibotni qat'iy amalga oshirishid Axborot xavfsizligi tushunchasi, uning tashkil etuvchilari tavsifi. Axborot xavfsizligi deganda tabiiy yoki sun'iy xarakterdagi tasodifiy yoki qasddan qilingan ta'sirlardan axborot va uni qo'llab-quvvatlab turuvchi infrastukturaning himoyalanganligi tushuniladi. Bunday ta'sirlar axborot sohasidagi munosabatlarga, jumladan, axborot egalariga, axborotdan foydalanuvchilarga va axborotni muhofaza qilishni qo'llab quvvatlovchi infrastrukturaga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi №439-II-sonli «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi qonunida axborot xavfsizligi axborot borasidagi xavfsizlik deb belgilangan va u axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganlik holatini anglatadi. Axborot sohasida shaxs manfaatlarini fuqarolarning axborotdan foydalanishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishida, qonunda taqiqlanmagan faoliyat bilan shug'ullanishida hamda jismoniy, ma'naviy va intellektual rivojlanishda axborotlardan foydalanishlarida, shaxsiy xavfsizlikni ta'minlovchi axborot himoyasida namoyon bo'ladi. Axborot sohasida jamiyat manfaatlarini bu sohada shaxs manfaatlarini ta'minlashda, demokratiyani mustahkamlashda, ijtimoiy huquqiy davlatni qurishda, ijtimoiy

hamjihatlikni qo'llab-quvvatlashda o'z aksini topadi. Axborot sohasida davlat manfaatlari milliy axborot infrastrukturasining rivojlanishiga sharoitlar yaratishda, axborot olish sohasida shaxs va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshishida, O'zbekistonning hududiy birligini, suverenitetini va konstitutsiyaviy tuzumining mustahkamligini, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlash maqsadida axborot, o'zaro tenglik va o'zaro manfaatdorlikdagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda ifodalanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Axborot bu turli xil shakildagi ma'lumotlar yig'indisi bo'lib azaldan, bizgacha axborot almashinilib kelgan xisoblanadi. Tarixan o'tmishga nazar tashlaganimizda xam ota bobolarimiz axborotdan keng va unumli foydalanib kelishgan desak adashmagan bo'lamiz. Kabutar orqali xat yuborilib bir-birlari bilan axborot almashilingani xammamizga ma'lum.

Axborot xar xil turda bo'ladi. Xayotimizda sodir bo'layotgan xodisalar u jarayon va ob'ektlar yig'indisi xisoblanadi. Misol uchun: matnli yozuv, videolar orqali, rasmlar orqali va albatta kodlar ya'ni yashirin ko'dlar orqali bir birlari bilan axborot almashiniladi. Sodda qilib aytilganda axborot bu biz bilishimiz kerak bo'lgan ma'lumotlar xisoblanadi. Axborot xavsizligini ta'minlash deganda avvalo

foydalanuvchining axborotlarini himoyalashga qo'yilgan me'yor va talablarni bajarish demakdir. Axborot xavsizligining ta'minlashini asosiy maqsadi-ma'lumotlarning yaxlitligi va mavjudligini muvozanatli qo'llashning maqsadga muvofiqligining hisobga olingan xolda tashkilot faoliyatiga xech qanday zarar yetkazmasdan himoya qilishdir.

Axborot xavfsizligi – bu uzatiluvchi, yig'iluvchi va saqlanuvchi axborotning xususiyati (holati) bo'lib, uning tashqi muhit (inson va tabiat) va ichki tahdidlardan himoyalanganlik darajasini xarakterlaydi. Shaxsning ruxsatisiz ma'lumotlarga kirish uni yo'q qilishi yokida barchasini o'zgartirib qo'yishda xamma ma'lumotlarga zarar yetkazishda ximoya qilish jarayoni xisoblanadi. Deylik uyali aloqa vositamizda parol o'rnatilgan uning ichida qanchadan qancha ma'lumotlar rasmlar, videolar yoki fayllar bor, kimdir bu ma'lumotlarimizdan xabardor bo'lmasligi uchun unga parol qo'yamiz, bu yerda ko'rib turganingiz axborot xavsizligining bir turi xisoblanadi.

Axborot xavfsizligi esa bu axborot foydalanuvchilariga va ko'plab axborot tizimlariga zarar keltiruvchi tabiiy yoki sun'iy xarakterga ega tasodifiy va uyushtirilgan ta'sirlardan axborotlarni va axborot kommunikatsiya tizim ob'ektlarining himoyalanganligidir.

Login tushinchasi deganda bu biron bir insonni o'zini axborot kommunikatsiya tizimiga ya'ni kim ekanligini tanishtirish uchun qo'llaniladigon ketma ket belgilar bo'lib, foydalanuvchining maxfiy bo'lmagan qayd yozuvi deyiladi.

Parol tushunchasi: Shaxsning kim ekanligini uning aslimi yo'qmi bilish xaqiqiyiligini aniqlashda tekshiruv axboroti sifatida ishlatiladigon maxsus belgi xisoblanadi. Kompyuter bilan muloqot boshlashdan oldin, unga klaviatura yoki identifikatsiya kartasi yordamida kiritiladigan harfli, raqamli yoki kod shaklidagi mahfiy so'zlardan tashkil topgan.

Avtorizatsiya tushunchasi: avtorizatsiya - foydalanuvchining resursdan foydalanish huquqlari va ruxsatlarini tekshirish jarayoni. Bunda foydalanuvchiga hisoblash tizimida ba'zi ishlarni bajarish uchun muayyan huquqlar beriladi. Avtorizatsiya shaxs harakati doirasini va u foydalanadigon resurslarni belgilaydi.

Ro'yxatdan o'tish tartibi deganda sodda qilib ayutganimizda bu biror bir tashkilot yokida biror tizimga shaxsiy ma'lumotlarimizni kiritishimiz va uni tasdiqlashimiz demakdir. Birinchi navbatda so'rovnomalar to'ldiriladi va login parol yaratiladi so'ngra ma'lumotlar xaqiqiyiligi tekshirilib, ro'yxatdan o'tish nihoyasiga yetadi.

Login va parolga ega bo'lish deganda bu biror bir tizimda yokida dasturda o'zining shaxsiy profilini yaratish demakdir. Login va parollar qanchalik uzun va maxfiy bo'lsa uni buzish shunchalik qiyin bo'ladi. Login deganimizda avvalo bu bizni tanituvchi nom ya'ni telefon orqali yoki email orqali biz foydalanadigon nom xisoblanadi. Parol esa uzun va qisqa raqamli maxfiy ko'd, bo'lib bu foydalanuvchi biladigon himoya belgisidir.

Login va parolni buzish - bu buzg'unchining biror bir maqsad yo'lida axborot kommunikatsiya tizimi obyektlaridan foydalanish uchun qonuniy tarzda foydalanuvchilarga tegishli login va parollarini buzishdir. Bunda maxsus dastur yordamida login va parollar generatsiya qilib topiladi. Login va parollarning uzunligi bu jarayonning uzoq vaqt davom etishiga yoki generatsiya qilaolmasiligiga ishora bo'ladi.

Login va parolni o'g'irlash - bu foydalanuvchilarning mahfiy ma'lumotlari bo'lgan login va parollarga ega bo'lish maqsadida amalga oshiriladigon internet firibgarligining bir turidir. Bu mashhur brendlar, masalan, ijtimoiy tarmoqlar, banklar va boshqa servislar nomidan elektron xatlarni ommaviy jo'natish yo'li orqali amalga oshiriladi. Masalan: xatda odatda tashqi ko'rinishi asl saytdan farq qilmaydigon sayt bo'ladi. Deylik siz sovg'a yutib oldingiz yoki bo'lmasam siz pul mukofoti yutib oldingiz yutiqni olish uchun xoziroq shu saytga kiring, deyilgan bo'ladi, bunday saytga tashrif buyurgan foydalanuvchi firibgarga akkauntlar va bank hisob raqamlariga kira olish xuquqini ochib beradi. Natijada firibgar uning bank xisoblaridagi mablag'larini yechib olishi mumkin bo'ladi.

Fishing-foydalanuvchilarning tarmoq xavfsizligi asoslarini bilmasligiga asoslangan ijtimoiy injeneriyaning bir turi. Jumladan, ko'pchilik oddiy faktni bilishmaydi: servislar qayd yozuvingiz ma'lumotlari, parol va shu kabi ma'lumotlarni yuborishni so'rab hech qachon xat yubormaydi.

Resurslardan ruxsatsiz foydalanish deganda biz biror bir kompyuterga ruxsatsiz kirish yoki bo'lmasam dasturlarga ruxsatsiz kirishni tushinamiz. Bu esa axborot xavsizligi qoidalariga zid. Resurslar bu telefon tizimlari yoki kompyuter, internet saytlari, bazalar ya'ni ma'lumotlar bazalari. Misol uchun biz kimningdir wifiga ruxsatsiz ulandik deylik u parol qo'ymagan va internetdan foydalanib ishlatdik bu xolat esa juda noto'g'ri bo'lib resurslardan ruxsatsiz foydalanilganining isbotidir.

Kompyuter virusi: bu asosan o'z o'zidan ko'payuvchi kompyuter orqali tarqaluvchi va axborot tashuvchilar orqali erkin tarqaluvchi va albatta zarar yetkazuvchi dastur kodi yoki kamandalar ketma ketligi xisoblanadi.

Kompyuter virusi -zararli dasturlardan bo'lib, kompyuter tizimiga ruxsatsiz kirib barcha ma'lumotlarni o'zgartitishi yokida o'chirish mumkin bo'lgan zararli xarakatlarni amalga oshiradi.

Kompyutere viruslarining asosiy turlari bu - fayl viruslari, yuklama viruslar, makro viruslar, tarmoq viruslaridir..

Kompyuter virusi xar xil xolatlarda keng tarqaladi. Misol uchun deylik men yuqtirilgan tashqi qurilma orqali ya'ni usb fleshka orqali virus yuqtirib oldim. Ya'ni dugonamning fleshkasini olib foydalandim, afsuski uning fleshkasi zararlangan edi ya'ni uning kompyuteriga virus tushgan va men shu fleshkani ishlatdim, natijada mening xam kompyuterimga virus tushdi. Bunday xollar orqali ko'rib turibsizki viruslar juda keng va tez tarqaladi. Ishonchsiz veb-saytlardan dastur yuklab olish, elektron pochta va h.k orqali yuqishi mumkin. Endi bu viruslarni bartaraf etadigon ya'ni kompyuter viruslarini aniqlash va ulardan ximoyalanish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib bu dasturlar: DOCTORWEB, AVP, NOD32 antivirus dasturlaridir.

Hujum tushunchasi-biror bir buzg'unchining qandaydir bir maqsadi sabab axborot komunikatsiya tizimlarining himoyalash tizimlarini buzishga qaratilgan harakatidir. Hujumdan ximoyalanish tushunchasi - xavsizlik va antivirus dasturlarini o'rnatishdan iboratdir. Asosan dasturlarni va tizimlarni yangilab borish, kuchli parollar o'rnatish, zararli dasturlarni aniqlab ularni bartaraf etishdan iboratdir.

Bugungi kunda axborot jadal va keng tarqalgan 21 asr axborot asri bo'lib, amaliy va nazariy ijodi eng cho'qqisiga yetgan asr xisoblanadi. Xozirda mediadan yoshlar juda ko'p foydalanib kelishmoqda. Asosan yoshlar ijtimoiy tarmoqlarga sur'atga tushib uyali telefonlar orqali bir birlariga yuboradilar. Xar xil mavzudagi yangiliklarga o'z fikirlarini bildiradilar. Doimiy ravishda virtual makonda muloqotga kirishadi. Dunyoning turli burchaklaridagi yoshlar bilan muloqotga kirishib axborot almashadilar. Shunday ekan biz yoshlar bizga berilgan imkoniyatlardan keng va unumli foydalangan xolda vatanimiz nomini baralla aytib bayrog'imizni yanada yuksaklarga ko'tarmog'imiz lozim.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin zamonaviy axborot muhitida insonlarning axborotga bo'lgan munosabati, tarqatishi axborotni qabul qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot xavsizligini ta'minlashda quyidagi chora tadbirlarni amalga oshirish zarur. Ta'lim tizimida axborot madaniyatini shakllantirish.

Jamiyatda ya'ni fuqarolarning yolg'on ma'lumotlarni tanlashda extiyotkorlikka chaqirish. Ommaviy axborot vositalarida axloqiy me'yorlarga rioya qilish. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali firibgarlar o'z yovuz niyyatlarini amalga oshirib kelayotgani xech kimga sir emas. Axborot texnologiyalari asrida yashar ekanmiz xar bir shaxs o'zining shaxsiy ma'lumotlariga ,login parollariga extiyot bo'lib yashashi, ijtimoiy tarmoqlardan kelgan xar xil saytlarga kirmasliklari talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tahirov Behzod Nasriddinovich «Fan ta'lim» nashriyoti, Buxoro 2022.
2. Hamroyev S.S Mediasavodxonlik va axborot madaniyati. Darslik" Sadriddin salim buxoriy" Buxoro 2022.